

Mavzu: Gap haqida ma'lumot

Aa Tabiatni muhofaza qilish burchimizdir.



Gap tugallangan fikrni bildiradi. U bitta yoki bir nechta so'zdan tuziladi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan ma'no jihatidan bog'lanadi.



Kuz, daraxt,
shamol

Kuz shamoli,
daraxt
yaproqlari

Kuz shamoli
daraxt
yaproqlarini
asta tebratdi.

- Qaysi ustunda gap berilgan? Javobingizni izohlang.



1-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlab, ko'chiring. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanishini unutmang.

Amir Temur haykali Toshkent shahrining markazida joylashgan bu haykal buyuk sarkarda Amir Temur sharafiga o'rnatilgan haykalda Amir Temur ot ustida tasvirlangan u qo'lini oldinga cho'zib, xalqni birdamlikka chorlab turgandek ko'rinadi haykal atrofi juda chiroyli va ozoda bog' bilan o'ralgan Amir Temur haykali xalqimizning faxri va tarixiy yodgorliklaridan biridir

- Matn nechta gapdan iborat?



1. Nutq nimalardan tashkil topadi?
2. Gap nima?
3. Gapning maqsadiga ko'ra turlarini bilasizmi?
4. Gapning oxirida qanday tinish belgilari qo'yiladi?



2-mashq. O'qing. Berilgan gaplardagi so'zlarning ma'no jihatidan bog'lanishiga e'tibor qarating.

1. Dono eman daraxtining qiziqarli yong'oqlarini terdi.
 2. Tikuvchi qattiq ko'ylak tikdi.⁴
 3. Islomjon bejirim kitob o'qidi.
- Gaplardagi so'zlarni ma'no jihatidan to'g'ri qo'llab, qayta o'qing.



3-mashq. Bosh bo'laklardan iborat gaplarga mazmunan mos ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib, o'qing.

Madina keldi.

Shoira yozdi.

Oftob chiqdi.

Gul ochildi.

Qush uchdi.

Bola o'ynadi.

Yomg'ir yog'di.



4-mashq. Filvord ichidan unli harflar bilan boshlanadigan barcha so'zlarni toping. Ulardan istalgan ikkitasi bilan gap tuzing va yozing. *Yordam uchun: bunday so'zlar 8 ta.*





5-mashq. Soʻzlarni mazmunan bogʻlab, gaplar tuzing.

Quyosh	sayradi.
Bulbul	pishdi.
Kapalak	porladi.
Olma	uchdi.

- Tuzgan gaplaringizga soʻroq bering.
- Gaplar mazmunan toʻliq boʻlishi uchun qanday soʻzlardan foydalanish mumkin? Misollar keltiring.



6-mashq. Aralash berilgan soʻzlardan gaplar hosil qiling. Gap oxiriga tegishli tinish belgisini qoʻying.

1. kitob, oʻqidi, qiziqarli, Azizbek
 2. maktabga, qachon, sen, borasan
 3. naqadar, tabiat, goʻzal, bahorda
- Gaplarning bosh boʻlaklarini aniqlang.



7-mashq. Oʻqing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Gapning birinchi soʻzini bosh harf bilan boshlab, koʻchiring.

Qoʻqongul

Qoʻqongul – chiroyli va rang-barang gul u bogʻda va hovlida oʻstiriladi qoʻqongul oq, pushti, binafsha va qizil ranglarda boʻladi bu gul asosan yoz oxiri va kuz faslida gullab, atrofga chiroy bagʻishlaydi qoʻqongul quyoshni² yaxshi koʻradi va unumdor, nam tuproqni yoqtiradi

- Siz yana qanday kuzgi gullarni bilasiz?

